


# O'zbekiston hududining mayda masshtabli risk xaritasi ishlab chiqildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4794-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti tomonidan O'zbekiston hududining mayda masshtabli risk xaritasi ishlab chiqildi.



Bugun, 24-dekabr kuni Seysmologiya institutida ushbu xaritaning taqdimoti o'tkazildi. Unda yetakchi olimlar, Vazirlar Mahkamasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi, Arxitektura va qurilishi instituti, Geologiya va geofizika instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Turin politexnika universiteti, Toshkent transport universiteti, Toshkent davlat texnika universtiteti vakillari ishtirok etdi.





Tarixiy va instrumental ma'lumotlarga ko'ra, respublika hududida MSK-64 shkalasi bo'yicha 7, 8 va 9 ball silkinishli zilzilalar qayd etilgan. Binobarin, ushbu hududlar uchun kelajakda shunga o'xshash hodisalarning takrorlanish ehtimoli yuqori. Bu iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik oqibatlarining yuzaga kelish ehtimolini ko'rsatadi.

Institut tomonidan ishlab chiqilgan mazkur xarita aholi va hududning seysmik xavfsizligi bo'yicha zamonaviy talablarga javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi hududi uchun seysmik xavf xaritasini ishlab chiqish uchun GIS platformalari asosida bir nechta ma'lumotlar bazalari yaratilgan bo'lib, ular seysmik xavf, binolar soni va ularning konstruktsiya turlari to'g'risidagi ma'lumotlarni mintaqaviy taqsimlashni tizimlashtirish, binolar va umuman turar-joy binolarining seysmik zaifligi, shuningdek, binolarning kadastr qiymatini baholash imkonini beradi.

Xarita respublikaning ma'muriy hududlari doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy zararni seysmik xavflilik, seysmik zaiflik va noldan yuzlab darajagacha bo'lgan qiymatlar konsentratsiyasi kombinatsiyasida baholashga asoslanadi.

Ushbu xaritani ishlab chiqishda boshqa mamlakatlar, xususan, Germaniya, Italiya, Rossiya, Xitoy, Moldova, Armaniston va boshqalarda qo'llaniladigan seysmik xavfni baholash va xaritalashning mavjud tajribalari o'rganildi.

O'zbekiston Respublikasi hududining seysmik xavf xaritalaridan O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.